

Ilmiy maktablar

Insoniyat taraqqiyotining har bir davri ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, falsafiy qonuniyat va holatlardan kelib chiqqan holda ilmiy tafakkur darajasi va xususiyatlarini belgilaydi. Bu bevosita tafakkur mahsuli bo'lgan fanlar va ularning rivojlanish tendensiyalarida o'z ifodasini topadi. Tadqiqotchining dunyoqarashi, o'rganish obyektiga doir muammolari belgilashi va ularning yechimiga munosabati, tanlangan tadqiq metodologiyasi va metodikasi masalalari umumiy ilmiy tafakkur darajasi va xususiyatlarini bilan bog'liq. Fanlar tarixidan ma'lumki, an'anaviy ilmiy tafakkur provinsial cheklanganligi, dogmatikligi, konservativligi, umrini o'tab bo'lgan qat'iyatlarga muteligi bilan xarakterlanib, uning bu sifatleri o'rganish obyektining to'la ma'nodagi dolzarb muammolarini tushunib yetishiga to'siq bo'ladi. An'anaviy tafakkur egasi obyektning taraqqiyotning mintaqaviy va global masalalari bilan yaxlitlikda idrok eta olmaydi, jamiyat va o'rganish obyektining taraqqiyot tendensiyalarini anglab yetmaydi, fanning dolzarb vazifalarini ijtimoiy taraqqiyot talablaridan kelib chiqib belgilashga o'z qisqartirish qobiliyatini qo'ldan berib qo'yadi. Natijada fanning o'zi o'z taraqqiyotiga g'ov bo'lib qoladi. Umuman olganda, an'anaviy tafakkur jamiyat taraqqiyoti darajasidan orqada qolib, unga to'sqinlik qila boshlaydi. Bu fanning yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qo'yishi uchun muhim shart. Fanni yangi bosqichga olib chiqish yangi ilmiy maktablar zimmasiga tushadi. Ko'rinadiki, fandagi turg'unlik unda yangi ilmiy maktablar shakllanishi uchun zamin yaratadi.

Ilmiy maktab nima?

Ilmiy maktab – ilmiy qarashlar yaxlitligi va betakrorligi asoslangan ilmiy jamoa. U kafedra, institut, mamlakat doirasida olimlarning muayyan ilmiy g'oya atrofida birlashuvlari asosida shakllanadi. Ilmiy maktab zakavati, qiziqishlar doirasi hamda ish uslubini yangi-yangi iste'dodlarni kashf qilish va jalb etishda katta ahamiyat kasb etadigan fan darg'asi ta'sirida tashkil topadi. Bu ilmiy jamoa ichidagi munosabatlar tadqiqotlarning natijalari emas, balki ijodiy-ilmiy ishlar samaradorligini sezilarli darajada oshiradigan asl g'oyalarni haqiqiy axborot almashuvlari ko'rinishida bo'ladi.

Bir ilmiy g'oya muayyan maktab doirasida turli ko'rinishga ega bo'lishi ham mumkin. Bu – ijobiy hodisa. Zero, u yangidan-yangi maktablar shakllanishi va taraqqiy etishiga olib keladigan firqa va taraffar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

“Ilmiy maktab” atamasi ikki holatda qo'llanadi:

1) umumiy qarash, g'oya va



Shakllanayotgan ilmiy maktablar: o'zbek amaliy tilshunosligi

O'zbek tilshunosligi: kecha va bugun

Ilk turkiy leksikografik maktab.

Manbalarda eski turkiy til atamasi bilan nomlanuvchi turkiy, sharqiy turkiy, chig'atoy tili kabi nomlar bilan ham yuritilgan. Ammo uning umumturkiy tildan ajralib, alohida yaxlitlik maqomiga ko'tarilganligini, boshqa turkiy tillardan farqli xususiyatlarini asoslash, kelgusida milliy til sifatida e'tirof etiladigan bu tilning o'ziga xos xususiyatlarini, fonetik, leksik-grammatik qurilishini tavsiflash ijtimoiy, qolaversa, ulkan ma'naviy-mafkuraviy ahamiyatga ega edi va u tarixiy zarurat, o'ziga xos ijtimoiy buyurtma sifatida namoyon bo'ldi. Bu buyurtmani qabul qilish va zaruratni ado etish turkiylardan yetishib chiqqan, XI asrda yashab o'tgan qoraxoniylar davlati xalqini turkiy tilshunos, adabiyotshunos, geograf, kartograf, etnograf, tarixchi, sayyoh Mahmud Koshg'ariy zimmasiga tushirdi. Olim qoraxoniylar davlati xalqini turk (turklar) atamasi bilan qayd qildi, ularni va ularning tilini, avvalo, shu mintaqada yashayotgan o'g'uz, turkman va uyg'ur qavmlari hamda ularning tilidan farqladi. Davr talabi va tarixiy zaruratni anglab, qo'yilgan ijtimoiy buyurtmani mukammal darajada ado etdi. Bu zaruriyat asosida shakllangan lug'atchilik an'anasi ming yillar mobaynida saqlanib qoldi. Adabiy manbalarni tahlil qilish – so'z ma'nolariga, ularning qo'llanishiga e'tibor berish, izohlash, lisoniy, ma'rifiy qiymatini ochish, asarlarning tarjima-si kabi masalalar bilan shug'ullanish keyingi davr leksikografiyasining maqsad va vazifasi bo'ldi. Bunda Eron shohi Nodirshohning ko'tib astrobodlik Nizomiddin Muhammad Hodi al-Husayni as-Safaviy (Mirzo Mehdixonning “Sangloh” (1760), Jamolidin Muhammad Abdulloh Turkiyning taxminan XIV asrda yozilgan “Kitobu-l-lug'at al-mushtoq fi lug'ati-turk va-l-qafchoq” (“Turk va qipchoq tillariga mushtoqlarni qiziqiruvchi kitob”), o'rta asr tilshunos-turkiyshunoslaridan bo'lgan Asiruddin Abu Hayyon al-Andalusiy (1256–1345)ning “Kitobu-l-idrok li-l-lisonil atrok”, undan foydalanilib XIV–XV asrlarda yozilgan va muallifi noma'lum “Attuhfatu-z-zakiyatu fi-l-lug'ati-turkiya” asarlari ham ana shunday an'ana mahsulidir. Keyingi davr jahon an'anaviy va zamonaviy lug'atchiligi uchun o'ziga xos yo'l ochildi.

2) ilmiy avlodlar almasha ham, saqlanib qoladigan va rivojlanib boradigan aniq mavzu, umumiy qarash, qiziqish va an'analar sistemasi asosida tashkiliy ravishda birlashtirilgan ilmiy jamoa. Ilmiy maktab ilmiy qiziqishlar uyg'unligi va tadqiqotlar mohiyatining umumiyliigi, aslik va betakrorlik, ilmiy natijalarning yuqori darajasi va maktabning ijtimoiy tan olinishi, yetakchining rolini va maktabning istiqbol-larini ta'minlaydigan vorislik belgilariga ega.

Fanlarning falsafiy davrida hukm surgan maktablar mustaqil markaz va institutlar maqomida edi. Keyinchalik “ilmiy maktab” tushunchasi ostida olimlarning aniq norasmiy jamoasi tushuniladigan bo'ldi. Masalan, qadimgi davrda san'at va falsafiy fikr maktablari (Arastu shogirdlari va davomchilari jamoasi) ilmiy maktabning yorqin ko'rinishi edi.

O'zbek formal tilshunosligi maktabi. O'zbek tilshunosligi tom ma'nodagi fan sifatida XX asrning 20–30-yillarida shakllana boshladi. O'z oldiga davr talablaridan kelib chiqib, muayyan maqsad-

larni qo'yan o'zbek tilshunosligi 50–60 yil mobaynida o'zbek adabiy tili me'yorlarini ishlab chiqish va ommalashtirishdan iborat ulkan zarurat asosida ish ko'rdi. Adabiy til – milliy yaxlitlikka erishishning, milliy yaxlitlik esa milliy taraqqiyotning bosh omili. Unga erishish zarurati natijasi o'laroq vujudga kelgan o'zbek an'anaviy (formal) tilshunosligi vakillari o'zbek tili qurilishini tavsiflash umumiy vazifasi ostida birlashishdi. XX asr o'zbek tilshunosligining shakllanishida Abdurafiq Fitrat, Y.D.Polivanov, G'oz Olim Yunusov, Qayum Ramazon, Faxri Kamolov, Ulug' Tursunov, Ayyub G'ulomov va ular izdoshlarining xizmati katta. Bu davrda o'zbek tilining ichki qurilishi zamonaviy tilshunoslik yutuqlari asosida o'rganildi va o'zbek tilshunosligi jahon zamonaviy tilshunosligi o'laroq shakllandi. Tilshunoslikning bugungi mavjud barcha bo'limlari bo'yicha ko'plab ilmiy-tadqiqot ishi vujudga keldi. Ular asosida imlo va talaffuz qoidalari yaratilib, o'rta, o'rta maxsus va oliy maktab uchun bu tildan me'yoriy darslik, qo'llanma va ilmiy grammatikalar yaratildi. “Hozirgi o'zbek adabiy tili” kursining mutaxassislar tayyorlashda fundamental predmet sifatida o'qitilishi mazkur ijtimoiy zarurat asosida kechdi. Natijada ta'lim, matbuot, radio, televideniye, rasmiy ish yuritish, kitobatchilik ishlari-da o'zbek adabiy tilining ustuvorligiga erishildi. Adabiy til me'yorlarini ishlab chiqish va ommalashtirishdan iborat ijtimoiy buyurtmani olgan o'zbek an'anaviy tilshunosligi o'zbek adabiy tilining imlo qoidalari, imlo lug'ati, talaffuz me'yorlari, o'zbek adabiy tilining akademik grammatikalari, shuningdek, o'zbek tilining 2 tomlil zo'hi lug'ati nashr etilishi bilan o'tgan asrning 80-yillarida o'z faoliyatiga yakun yasadi. Bu holat yetakchi o'zbek tilshunoslari tomonidan e'tirof etildi.

O'zbek substansial tilshunosligi ilmiy maktabi. XX asrning 70-yillariga kelib o'zbek tilshunosligining empirik (amaliy, faktografik) bosqichi tugallangan, o'z zimmasiga yuklatilgan ijtimoiy zarurat – adabiy til me'yorlarini ishlab chiqish va omma ongiga singdirishdan iborat ulkan vazifa ado etilgan edi. To'plangan boy dalillari ashyoni dialektik metodologiya asosida o'rganishga kuchli zamin tayyorlangan bo'lib, tilshunoslikning o'zi esa turg'unlik, an'anaparastlik holatini boshdan kechirmoqda edi. Shu bois butun sobiq sho'ro davlati hududida olib borilayotgan oshkorlik va qayta qurish siyosati o'zbek tilshunosligi fanini ham chetlab o'tmadi. Fanning yangi avlod olimlari qayta qurish sharoitida o'zbek tilshunosligining dolzarb muammolari, mutaxassislar e'tiborini kutayotgan tarixiy zarurat bo'yicha respublika va ittifoq

matbuotida chiqish qildilar. Ko'tarilgan masalalarni mohiyatan ikkiga bo'lish mumkin: 1) o'zbek tilshunosligi oldiga 30–40-yillarda qo'yilgan va 40–50-yillarda amalga oshirgan vazifasi – o'zbek tili turli sath birliklarining zamonaviy tahlil usullarida berilgan mukammal tavsifi, belgilangan adabiy til me'yorlari, ta'limning turli bosqichi uchun yaratilgan o'quv qo'llanmalari, darslik hamda lug'atlar asosida to'laqonli nazariy tushunchalar hosil qilish, xususiyliklarda umumiylikni, hodisalarda mohiyatni, oqibatlarida sababni, voqealarda imkoniyatni ochish darajasiga ko'tarilish; 2) uzoq yillar davomida o'zbek tili ittifoqda turkiy, qolaversa, boshqa tillar kabi rus va Yevropa tillari qoliplari asosida o'rganib kelanganligi sababli uni o'z ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda alohida milliy yaxlitlik sifatida tadqiq qilish. Bu vazifalarni ado etish “imkoniyatlar tilshunosligi” degan nomga sazovor bo'lgan, o'zbek an'anaviy tilshunosligining vorisi – o'zbek substansial tilshunosligi maktabi zimmasiga yuklatildi. Ilmiy maktabning tamal toshlari filologiya fanlari doktori, professor Hamid Ne'matov tomonidan qo'yilib, uning izdoshlari va maslakdoshlari tomonidan turli yo'nalishlarda davom ettirildi. Bu tilshunoslik o'zbek tilining lisoniy va nutqiy strukturalarini farqlash, lisoniy struktura va lisoniy birliklarni, ularning imkoniyatlarini aniqlash borasida izchil tadqiqotlar olib borib, tilning fonetik, leksik, morfologik, sintaktik lisoniy strukturalarini va birliklarini dialektik tadqiq metodologiyasi asosida tekshirdi. Tekshirish natijalari dissertatsiya va monografiyalar sifatida shakllantirildi. Ta'limda hozirgi o'zbek adabiy tili (nutqning bir turi) ni o'qitishdan hozirgi o'zbek tilining lisoniy strukturasini o'qitishga o'tildi. Oliy ta'limda amalda bo'lgan, nomi tilni emas, balki uning bir ko'rinishi bo'lgan adabiy nutqni anglatadigan “Hozirgi o'zbek adabiy tili” kursi mohiyatan tilning lisoniy strukturasini tavsifini o'z ichiga olgan “Hozirgi o'zbek tili” tabiatiga ega bo'ldi (darvoqe, bu kurs tegishli o'quv hujjatlarida hanzur davr talablariga muvofiq bo'lmagan eski nomi bilan yuritilayotgani, afsuski, an'anaviylikning ko'rinishidir). Hatto o'zbek tilining lisoniy strukturasini o'rganish jarayonida ochilgan substansial qonuniyatlar (masalan, lisoniy darajalanish) bugungi kunda g'arb tilshunosligining ustuvor yo'nalishlaridan bo'lgan korpus tahlil tadqiqotlarida keng qo'llanilayotganligini iftixor ila qayd etish lozim. Ko'rinadiki, o'zbek substansial tilshunosligi vakillari ham davr talablarini asosidagi ijtimoiy zaruratni teran anglab, undan kelib chiqadigan vazifalarni ado etishdi.

O'zbek amaliy tilshunosligi ilmiy maktabi – ehtiyoj farzandi

Asrimiz boshida lisoniy imkoniyat-larning nutqiy voqelanishini tekshirishga, undan amaliy foydalanish samaradorligini oshirish, qo'llanish doirasini kengaytirish muammolari bilan shug'ullanishga jiddiy kirishish talab qilina boshladi va u yangi asr tilshunosligi zimmasiga yuklatilayotgan ijtimoiy buyurtma sifatida namoyon bo'ldi. Bu esa lisoniy imkoniyatlarining amaliy voqelanishi, undan samarali foydalanish masalalari bilan shug'ullanuvchi o'zbek substansial-pragmatik tilshunosligi, korpus tilshunosligi, o'quv lug'atchiligi, amaliy leksikografiya, lingvoma'naviyatshunoslik, lingvistik ekspertologiya kabi zamonaviy fan yo'nalishlarining yaxlit ilmiy maktab sifatida shakllanishiga olib keldi. Quyida so'z karvoni o'zbek amaliy tilshunosligining ushbu bekatlaridan o'tadi.

Substansial-pragmatik yo'nalish. “Ma'rifat” gazetasining 2015-yil 13-may sonida filologiya fanlari doktori, professor Baxtiyor Mengliyev tomonidan (“Tilda imkoniyat va voqelik mush-tarakligi”) o'zbek tili lisoniy imkoniyat-larining nutqiy voqelanishi muammolari tadqiqi konsepsiyasi e'lon qilindi. Bu o'zbek substansial-pragmatik tilshunosligining yangi empirik yo'nalishi shakllanishiga asos bo'ldi. Yo'nalish lisoniy imkoniyatlarni so'zlovchi, tinglovchi, ularning muloqot jarayonidagi o'zaro munosabati, muloqot vaziyati singari nolisoniy hodisalar bilan bog'liq holda o'rgana boshladi. Shaxsning lisoniy imkoniyatlaridan amaliy foydalanishi so'zlovchi hamda tinglovchining shaxsiy sifatleri, nutq maqsadi, uning turlari, nutq strategiyasi va taktikasi, nutq odo-bi, muloqot madaniyati, so'zlovchi yoki tinglovchining dunyoqarashi, bilim darajasi, qiziqishlari kabi qator nolisoniy omillar bilan mushtarak holda yuzaga chiqishida namoyon bo'lishini ko'rsatib berdi. Substansial-pragmatik tilshunoslik substansial tilshunoslikning zamirida shakllangan istiqbolli yo'nalish, uning lisoniy imkoniyatning yuzlab muayyan voqelanish, shakl-ko'rinishlarini och-gach bu shakl-ko'rinishlardan qay birini qay bir sharoitda qo'llash ko'proq samara berishini aniqlashga e'tibor qaratishi dalillandi. Dunyo pragmalingsvistikasi oddiygina nutqiy muloqot jarayonini bevosita samaradorlik nuqtayi nazari-dan o'rganishni maqsad qilib qo'yan bo'lsa, o'zbek substansial-pragmatizmi ochilgan, tavsiflangan imkoniyatlar xazi-nasidan kelib chiqishi asosladi. Pirovardida o'zbek tilshunosligida nutq samara-



dorligiga erishishning amaliy masalalari bilan shug'ullanuvchi fan yo'nalish-larining nazariy asoslari vujudga keldi. Tilshunoslikning ushbu yo'nalishida “Lisoniy tizim yaxlitligi va unda sath-lararo hamkorlik” (B.Mengliyev, 2001), “Grammatik ma'no lisoniy va pragmatik omillar yaxlitligida” (M.Ernazarova, 2018) mavzusida fan doktori darajasida-gi, (“O'zbek tilida fe'l lug'aviy shakllari tizimi” (B.Bahriddinova, 2001), “Sema-na, nutqiy ma'no va uning leksikografik talqini” (Sh.Bobojonov, 2004), “O'zbek tili substansial-pragmatik tadqiq qilishning metodologik asoslari” (J.Ibrohimov, 2019) kabi mavzularda 10 dan ortiq nomzodlik va falsafa doktori darajasidagi dissertatsiyalar bajarildi. Hozirda substansial-pragmatik yo'nalish bo'yicha muloqot madaniyati va samaradorligini ta'minlash mexanizmlarini ishlab chiqishga doir o'quv va uslubiy qo'llanmalar yaratish, lisoniy birliklar-ni semantik strukturasini va pragmatik xususiyatlariga oid monografiyalar, o'quv qo'llanmalarini mukammallashtirish, tadqiqotlar natijalari asosida lug'at tuzish, ta'limning turli bo'g'inlari uchun yaratilgan o'zbek tilidan darslik va qo'llanmalar, oliy filologik ta'limda ixtisod-lik va tanlov fanlarini takomillashtirish kabi vazifalar mavjud, soha mutaxassis-lari ularning yechimi ustida ishla-moqda.

O'zbek korpus lingvistikasi. “Ma'rifat” gazetasining 2018-yil 26-aprel sonida filologiya fanlari doktori, professor Baxtiyor Mengliyev, filologiya fanlari doktori Shahlo Hamroyevaning o'zbek tili milliy korpusiga talab va ehtiyoj, milliy korpusning imkoniyatlari, muam-molari tadqiqi konsepsiyasi (“O'zbek tilining milliy korpusi”) e'lon qilindi. Ushbu maqola o'zbek korpus lingvisti-kasida monografik tadqiqotlar va amaliy ishlanmalarni boshlab berdi. Milliy korpus milliy til xazinasi demakdir. Undan lingvist, leksikograf, kompyuter lingvisti-lari, dasturchi, muharrir, tarjimon, jur-

nalist, noshirlar, olim, o'qituvchi, ta'lim oluvchilar va boshqa har qanday soha mutaxassisi keng foydalanadi. Dunyo bo'ylab so'zlashuvchilari soni salmoqli bo'lgan o'zbek tilining internetda o'z kontentiga ega bo'lishi hamda ushbu materiallardan lingvistik amallar bajarishda foydalanishga bo'lgan ehtiyoj o'zbek korpus lingvistikasini rivojlantirishning dolzarb ekanligini ko'rsatadi. O'zbek tilining milliy korpusi til materiali, elektron kutubxona, o'zbek tabiiy tilini istalgan prizmada tekshirish, umumiy aytganda, o'zbek tilini zamonaviy ax-borot texnologiyalariga integratsiya qilish kabi imkoniyatlar ehsigini ochib beradi. Bu esa o'zbek tili korpuslarini ishlab chiqishning nazariy asoslarini tadqiq etish ehtiyojini paydo qildi. Kun tartibiga chiqqan bu masala “O'zbek tili mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari” (Sh.Hamroyeva, 2018), “O'zbek tili milliy korpusining sinonim so'zlar bazasi” (A.Eshmo'minov, 2019), “Atov birliklarini o'zbek tili korpuslari uchun leksik-semantik tegrashning lingvistik asos va modellari” (D.Ahmedova, 2020), “O'zbek milliy korpusida idio-malar bazasini yaratish” (G.Begmatova, 2021), “O'zbek tili ta'limiy korpusining lingvistik asoslari” (O'.Xoliyorov, 2021), “O'zbek tili milliy korpusini yaratishning nazariy va amaliy masalalari” (G.Toirova, 2021), “Milliy korpus uchun parsing dasturi yaratishning lingvistik asoslari” (O.Xidirov, 2021), “O'zbek tili elekt-ron korpusining kompyuter modellari” (N.Abdurahmonova, 2022), “O'zbek tilining internet axborot matrlari korpusini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari” (O.Abdullayeva, 2022), “O'zbek va ingliz tili parallel korpusini tuzishning lingvistik va dasturiy masala-lari” (R.Karimov, 2022) kabi mavzularda 10 dan ortiq falsafa doktori va fan doktori darajasidagi dissertatsiyalarning bajari-lishiga olib keldi.

(Davomi 18-betda.)